

FRANS KAFKANING “EVRILISH” ASARINING TANQIDIY TAHLILI

Bu asarni o’qishni boshlaganimda, menda shunday savol tug’ildi: “Gregor Zamza - u qanday inson?” Bu hayotda uning yashashidan maqsadi nima? Shu va shunga o’xshagan savollar asarni o’qib bo’lgunimcha, mening boshimda aylanaverdi. Siz aytishingiz mumkin, u ota-onasining qarzini qutulishi uchun ishlashi, singlisini, ya’ni Gretani o’qitishga intilishi maqsad emasmi? – deb. Yo’q! Men bunday deb o’ylamayman!!! Sababi har birimizning ota-onamiz oldida, aka-ukamiz oldida, opa-singlimiz oldida va yaqin kishilarimiz oldida majburiyatimiz bor. Biz majburiyat bilan maqsadimizni chalkashtirmasligimiz kerak. Gregorning ota-onasining qarzini qutilishi uchun ishlashi uning farzandlik burchi va vazifasidir. Singlisini o’qitishga intilishi esa, “aka” degan nomga munosib bo’lish uchun sai-harakatidir.

Bu hayotda shunday qonunlar ham borki, ularni na kitoblarda, na kodekslarda uchratasiz. Bu qonunlar bizning ongimizda, qalbimizda o’chmas bo’lib yozilgandir.

Gregor xashoratga aylanmasidan avval insoniy qiyofada yurganida xashoratga aylanib bo’lgan edi. Men uni chumoliga o’xshatdim. Bilmadim, nima sababdan yozuvchi uni qirqoyoq sifatida tasvirlaganini? Balki kitobxonga ta’sir o’tkazish uchundir. Lekin biz chumolini mehhatsevar jonzod sifatida bilamiz. Qirqoyoqni esa, jirkanch xashorat deb tasavvur qilamiz. Demak, yozuvchi bu bilan nimadir demoqchi?! Uning qirqoyoq sifatida tasvirlangani yozuvchining hayoti, o’y-xayollari va tasavvurlari bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Bu asarda faqat Gregor emas, uning oilasi ham tasvirlangan. Yozuvchi oilasi bilan munosabatlariga alohida ijodiy yondashganini ko’rishimiz mumkin. Masalan, Gregor xashoratga

aylanganidan so'ng, u ishlamasa, oilasi qiynalib qolishi mumkinligini o'ylaydi. Oilasi ham o'z navbatida Gregorni xashoratga aylanganidan tashvishga tushadi. Afsuski, vaqt o'tishi bilan hamma-hammasi o'zgaradi. Singlisi Gregorga mehribon bo'lishiga qaramay, vaqt o'tgan sayin undan yuz o'giradi. Nafaqat singlisi, balki uni dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan ota-onasi ham Gregordan mehr va muruvvatlarini ayashadi. Masalan, uni tepib, urib xonasiga haydagan otasi emasmi? Yoki o'z o'g'lini ko'rishdan qo'rqqan onasi emasmi?! Ona o'z bolasidan ham jirkanadimi?! Balki, men noto'g'ri mushohada yuritayotgandirman, bo'rttirib gapirayotgandirman. Lekin bu fikrlarning hammasida ma'lum bir asos bor deb o'ylayman.

Bu bilan yozuvchi bizga nima demoqchi? Hayotning shafqatsiz, yovuz va qattiqqo'lligini ko'rsatmoqchimi? Ha, aynan shunday bu dunyoda qo'lingdan hech narsa kelmas ekan, hech kimga xatto, ota-onanga, yaqinlaringa ham keraging yo'q! Yozuvchi bir oila kesimida bu dunyoning beshafqatligini bayon qila olgan.

Haqiqatan ham, bu hayotda faqatgina odamlarni foydasi tegsagina hurmat qilamiz, e'zozlaymiz, ko'klarga ko'taramiz. Aslida, bu ikkiyuzlamachilikku? Axir biz „inson“ degan nomga dog' tushiryapmizku?! Nima sababdan xatolarimizni o'zimizdan qidirmaymiz?! Chunki biz...

Hurmatli do'stlar! Bu yerda yozilgan fikrlar, balki xatodir, balki to'g'ridir, balki bir taraflama yondashilgandir, lekin bu hayotda bir-birimizdan faqat va faqat mehr-oqibat, yaxshilik kabi insoniy fazilatlar qolishini unutmaylik!!! Bir-birimizni ko'rganimizda, jilmayib, samimiy „Salom“ degan so'zdan ayirmasin!!!